T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti

# UZLUKSIZ TA’LIM

ILMIY-USLUBIY JURNAL

2021
maxsus son

*DJURAYEV Risbay*
**Bosh muharrir**

Jurnal 2001 yildan nashr qilina boshlangan.
O‘z MAAdan 2007 yil 3-yanvarda № 0101-tartib raqami bilan qayta po‘yxatdan o‘tgan.

Jurnalda e’lon qilingan maqolalardan iqtibos keltirilganda «Uzluksiz ta’lim» jurnalidan olinganligi ko‘rsatilishi lozim.

**Tahrir hay’ati:**
*Sherzod SHERMATOV*
*Uzoqboy BEGIMQULOV*
*Alisher UMAROV*
*Nargiza RAXMANQULOVA*
*Xolboy IBRAGIMOV*
*Shavkat QURBONOV*
*Roxatoy SAFAROVA*
*Islom ZOKIROV*
*Dono G‘ANIYEVA*
*Lobar QARAXANOVA*
*Dusmurod DJURAYEV*

**Tahririyat manzili:**
100027, Toshkent sh.,
Furqat ko‘chasi,
174-uy.

O‘zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34
(93)-503-52-07
e-mail: uzluksiztalim_jurnal@mail.ru
liya_2305@mail.ru

## TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

3 ***S.T.Turg'unov***
Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlar samaradorligini ta'minlash
9 ***A.G'.Turg'unboyeva***
O'smirlik davrida xarakter aktsentuatsiyasi va xarakternig shakllanishi
13 ***M.A.Maxsudova***
Turli yosh davrlarida muloqotning rivojlanishi
17 ***Z.B.Kurbanova***
Bolalar ijtimoiylashuvini tashxis qilish uzluksiz ta'lim samaradorligi omili sifatida
21 ***Yo.T.Djumanazarov***
Maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirish ishlarini tashkil etishning ayrim psixologik aspektlari
25 ***S.Yu.Akbarov***
Kattalarga ta'lim berish samaradorligini oshirish – yangi davr talabi sifatida
28 ***A.A.Xusanov***
Bo'lgusi o'qituvchi-logopedlarni inklyuziv ta'lim muhiti sharoitida pedagogik faoliyatini ilmiy tashkil etish pedagogik muammo sifatida
32 ***D.D.Oribboyeva***
Maktab yoshidagi o'quvchilar ijtimoiy kompetentligining tarkibiy qismlari
36 ***M.B.Badritdinova***
O'smirlarda tafakkur rivojlanishining psixologik xususiyatlari
39 ***Z.O.Rahmatullayeva***
Bolalarda emotsional intellektni shakllantirishning samarali omillari
42 ***D.H.Ergasheva***
O'quv-bilish faoliyati muhitida bola mustaqilligining psixologik xususiyatlari
46 ***D.H.Ergasheva***
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar bilish faoliyatida mustaqillikni rivojlantirish omillari
50 ***N.O.G'aniyeva***
O'smirllik davrida ijtimoiy qo'rquv holatlarining namoyon bo'lishi
54 ***N.A.Vaxobova***
Oilada bolani maktab ta'limiga «shaxs» sifatida tayyorlashning ijtimoiy-psixologik omillari
58 ***Г.Р.Мансурова***
Особенности типов темперамента и их влияние на профессиональное самоопределение личности
64 ***Sh.J.To'ychiyeva***
Psixologik mahoratli o'qituvchi – davr talabi
66 ***M.Abdullayeva, N.Abdullayeva***
Oiladagi muloqotning o'ziga xos xususiyatlarining shakllanishi
70 ***M.Abdullayeva, D.Abdullayev***
O'smirlarni sport musobaqalariga tayyorlashning o'ziga xos jihatlari
74 ***Z.B.Kurbanova, M.N.Rustamova***
O'quvchilar kreativ qobiliyatini o'rganishning diagnostik vositalari
78 ***Sh.B.Tursunova***
O'qituvchi kasbiy kompetentligini shakllantirish omillari
81 ***Sh.B.Tursunova***
O'qituvchi kasbiy kompetentsiyasi rivojlantirishida kreativ muloqot omillari
85 ***A.A.Soliyev, M.Y.Mirvaliyeva***
O'smirlar sotsial statusini shakllantirishiga ta'sir etuvchi omillar
89 ***G.Tulyaganova***
Shaxs rivojlanishining turli bosqichlarida o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishning psixologik xususiyatlari
93 ***O.R.Nabiyeva***
Reproduktiv yoshdagi ayollar ruhiyatida kuzatiladigan o'zgarishlar
98 ***M.N.Rustamova***
Pedagogik faoliyat samaradorligining psixologik omillari
101 ***G.Sh.Tursunova***
Egotsentrizm shaxs xususiyati sifatida
104 ***A.N.Qurbonboyev***
O'zini o'zi faollashtirish psixologik tadqiqotlar predmeti sifatida
108 ***D.B.Toshpo'latova, N.Maxmudova***
Oliy ta'lim muassasalari maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish mexanizmlari

# KATTALARGA TA'LIM BERISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH – YANGI DAVR TALABI SIFATIDA

***S.YU.AKBAROV,***
*NamDU Psixologiya kafedrasi dotsent v.b.*

*Maqolada kattalarga ta'lim berish sohasining bugungi kundagi xolati va rivojlanish istiqbollari haqida so'z boradi. Kattalarni o'qitish sifatini yangi bosqichga ko'tarish masalasi ijtimoiy-psixologik jihatdan oydinlashtirib beriladi.*
***Kalit so'zlar:*** *uzluksiz ta'lim, katta odam, kattalarni o'qitish, xronologik yosh, biologik yosh, shaxs, yetuklik yoshi, individual rivojlanish, ijtimoiy hayot.*

*В статье идёт речь о сегодняшнем положении и перспективы развития сферы образования взрослых. Определены задачи повышения на новый этап качества обучения взрослых в социально-психологическом контексте.*
***Ключевые слова:*** *непрерывное образование, взрослый человек, обучение взрослых, хронологический возраст, биологический возраст, личность, зрелый возраст, индивидуальное развитие, социальная жизнь.*

*The article discusses the current state and prospects of development of adult education. The issue of raising the quality of adult education to a new level will be clarified from a socio-psychological point of view.*
***Key words:*** *continuing education, adult education, chronological age, biological age, personality, adulthood, individual development, social life.*

Uzluksiz ta'lim tizimida shaxsning kasbiy yetuklikka erishishi, ushbu sohaga doir yangiliklarni o'zlashtirib borishida aks etadi, ayniqsa hozirgi kunda jamiyat ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan kadrlarni kasbiy qayta tayyorlash dozarb ahamiyat kasb etdi hamda keng tarqalgan voqelikka aylandi.

2020 yilning 24 sentabr sanasidan O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni kuchga kirdi. Mazkur qonunning qabul qilinishi, uzluksiz ta'lim tizimidagi yangicha yondashuvga keng yo'l ochib berdi. Jumladan, qonunning 3-moddasida asosiy tushunchalarga izoh berildi, 5-moddada: ishlab chiqarishdan ajralgan(kunduzgi) va ajralmagan xolda(sirtqi, kechki, masofaviy) ta'lim olishni tashkil etish; kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish; alohida ko'rsatib o'tib o'tildi. "Ta'lim tizimi" deb nomlangan 6-moddada: "Ta'lim tizimi yagona va uzluksizdir" deb belgilab qo'yildi.

Ayniqsa "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunni 15-moddasida, "katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish" ta'lim olish shakli sifatida qayd etildi.

O'zbekistondagi zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat kelgusi yillarda katta yoshdagilarga ta'lim berish zaruratini taxmin qilishga imkon beradi, ta'lim olishga ehtiyoji mavjud kattalar foizi quyidagi sabablarga ko'ra o'sib bormoqda:

– yangi zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarni egallash zarurati, kompyuter

orqali ifodalanadi, kattalik davrini shaxs faoliyatining muhim sifati deb belgilash mumkin. Kattalik davri amalga oshirilgan ishlar uchun mas'uliyat va javobgarlik xissini shakllantiradi, ushbu davrda uzluksiz ta'limning o'rni beqiyos sanaladi.

Hayotiy faoliyatning turli bosqichlarida kishilarga bir-biriga o'hshash bir qator tabiiy va ijtimoiy-psixologik vazifalar yuklatiladi:

– tabiiy zot sifatida o'zini saqlashi va rivojlantirishi(hayotning davomiyligi, salomatlik, nasl qoldirish);

– ijtimoiy faol shaxs sifatida o'zini ro'yobga chiqarish(mehnat bozorida munosib o'rnini topa olish, madaniyatni o'zlashtirish, ma'naviy yuksalish);

– yoshga doir muammolar ( yosh inqirozlari, gormonal o'zgarishlar davri);

– ta'lim olishning almashinib borishi (oilaviy ta'lim, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, kasbiy ta'lim, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va kasbiy qayta tayyorlash v.b.);

Oiladagi ijtimoiy rollarning almashinib turishi (er-xotin, ota-ona, farzand, qaynota-qaynona, kuyov, kelin, bobo-buvi va boshqa rollar);

– ekzisensial inqirozlar(hayot mazmunini qidirish);

– ijtimoiy-psixologik va stressli vaziyatlar( ishning o'zgarishi, boshqa joyga ko'chish, xorijga chiqish, yaqin kishilarning vafoti, nafaqaga chiqish v.b.);

– ijtimoiy funksiyalarni bajarish(armiya safida xizmat burchini o'tash, davlat idoralarida xizmat vazifasini ado etish, mahalla bilan hamnafas yashash);

– ahloqiy muammolarni hal etish( yaxshilik va yomonlik, adolat, mehribonlik, mehr-muruvvat, sahovat, burch xissi va boshqalar).

Hozirgi kundagi ta'lim mazmuni o'z ichiga quyidagi jihatlarni oladi:

– zamonaviy bilimlar darajasini oshirish;

– o'zgarib boruvchi jamiyatda axborot oqimi bilan ishlash;

– "odam-odam ", "odam – kompyuter" tizimida ishlay olish;

– o'z faoliyatini tizimli ravishda loyihalash;

– yangi ijtimoiy- iqtisodiy munosabatlarni egallash;

– salomatlikni saqlash;

– o'z shahsiy imkoniyatlarini chamalash;

– ma'naviy – ma'rifiy jihatdan yuksalish;

Yuqoridagi xolatlarni e'tiborga olgan holda shuni aytish mumkinki, ta'lim mazmuni yangi davr talabidan kelib chiqadi, uzluksiz ta'lim hayotiy zaruratdir, kasbiy qayta tayyorgarlikka bo'lgan ehtiyoj mavjud degan xulosaga olib keladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Т. "Ўзбекистон", 2017 й . – 45 б.

2. Жалилова С.Х., Ҳайдаров Ф.И. Касб психологияси. Т. 2010.

3. Коі È.Ñ. Ïñèõîëîãèÿ ðàííåé þíîñòè. М. 1994.